“RO‘YXATGA OLINGAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
2026-yil 20-oktabr
89/2-son

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy bank raisining o‘rinbosari

/imzo/ S.S.Nosirov

“OPEN BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVI

(yangi tahriri)

“TASDIQLANGAN”
Yagona aksiyadorning
2026-yil 2-iyuldagi
07/1-sonli yig‘ilish bayonnomasi

Kuzatuv kengashi a’zosi

/imzo/ N.R.Yusupov

Toshkent – 2026-yil.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Open bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda matnda Bank deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonun hujjatlarilarga hamda Bank muassisining 2022 yil 22 avgustdagi 1-sonli ta’sis yig‘ilish qaroriga asosan tashkil etilgan.

2. Bank o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlariga, boshqa qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

3. Bank aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilib, bank xizmatlari sifatini, tezkorligini va qulayligini oshirishga qaratilgan raqamli bank hisoblanadi.

4. Bank o‘zining tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq firma nomiga va qisqartirilgan firma nomiga ega.

Bankning firma nomi:

davlat tilida: to‘liq – “Open bank” aksiyadorlik jamiyati, qisqartirilgan nomi – “Open bank” AJ;

rus tilida: to‘liq – Акционерное общество “Open bank”, qisqartirilgan nomi – AO “Open bank”;

ingliz tilida: to‘liq - Joint stock company “Open bank”, qisqartirilgan nomi –JSC “Open bank”.

Bank o‘z firma nomidan mutlaq foydalanish huquqiga ega.

5. Bank o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘ladi. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Bank o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

6. Bank yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

7. Bank o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi. Bank Yagona aksiyadorning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

Yagona aksiyador Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o‘z zimmasiga oladi.

Bank davlatning majburiyatlari bo‘yicha, davlat esa Bankning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, bundan Bankning yoki davlatning o‘zi bunday

majburiyatlarni zimmasiga olish hollari mustasno.

8. Bank o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi va cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

9. Bankning joylashgan yeri (pochta manzil): 100000, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy. Elektron pochta manzil: office@openbank.uz, veb manzil: www.openbank.uz.

2-bob. Bank faoliyatining maqsad va vazifalari.

10. Bank o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi. Bankning asosiy maqsadi yuridik va jismoniy shaxslarga amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keng ko‘lamdagi sifatli va zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish hamda foyda olishdan iborat.

11. Bank masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish kanallari orqali barcha turdagi bank xizmatlarini taqdim etuvchi raqamli bank sifatida faoliyat yuritishni o‘z oldiga maqsad qilib, quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishni belgilab qo‘ygan:

masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanib zamonaviy raqamli moliyaviy xizmatlarni keng joriy qilish;

24/7 rejimida ishlaydigan onlayn bank xizmatlarini ko‘rsatish;

tez va qulay skoring tahlillar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

jismoniy va yuridik shaxslarga turli moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatish;

xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligini oshirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish;

aholiga o‘z biznesini yuritishda yanada qulayliklar yaratish imkoniyatlari vujudga keltirish;

xalqaro moliya institutlari va yetakchi xorijiy banklarning investitsiyalarini jalb etish orqali moliyalashtirish xizmatlarini keng ko‘lamda ko‘rsatib kelish.

3-bob. Bank operatsiyalari

12. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi:

pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to‘lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, to‘lovliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb etilgan mablag‘lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha pul

mablag‘larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;

qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas’ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash;

bank kartalarini berish va to‘lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko‘rsatish;

islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirish.

Banklar banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

Bankning islomiy moliya operatsiyalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

foydani taqsimlash sharti asosida mijozni moliyalashtirish yoki pul mablag‘larini investitsiyaviy omonatlarga jalb etish;

vakillik shartnomasi orqali pul mablag‘larini berish yoki investitsiyaviy omonatlarga jalb etish;

tovarni nasiyaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish;

tovarlar uchun oldindan haq to‘lash orqali mijozni moliyalashtirish;

birgalikdagi faoliyatni (sherikchilik) amalga oshirish yoki yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish orqali mijozni moliyalashtirish;

mol-mulkni islomiy ijaraga berish (sotib olish huquqi bilan);

umumqabul qilingan xalqaro bank amaliyotiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa islomiy moliya operatsiyalari.

4-bob. Bankning huquq va majburiyatlari

13. Bank quyidagi huquqlarga ega:

o‘zining umumiy manfaatlarini himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar va boshqa birlashmalar tuzishga;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatxonalar ochishga;

chet elda sho‘ba banklar ochish va filiallar tashkil etish, banklarning kapitalida ishtirok etish, shu jumladan chet el banklarini tashkil etishda ishtirok etishga;

shartnoma asosida pul mablag‘larini depozitlar, kreditlar shaklida jalb etishi va ularga joylashtirishi, hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa moliyaviy operatsiyalarni bajarishga;

mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni shartnomalar asosida amalga oshirish, shartnomalar shartlarini, kreditlar, depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari, bank operatsiyalariga oid vositachilik haqi miqdorini mustaqil belgilashga;

xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshirish shartlari va tartibini tasdiqlashga;

xizmatlar va operatsiyalarni shartnoma asosida va uzluksiz asosda amalga oshirish uchun uchinchi tarafga autsorsinga topshirishga;

sof foyda hamda boshqa mablag‘lar hisobidan zaxiralar va fondlar tashkil etishga;

qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga;

14. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug‘urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas.

Ushbu cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta’minotni sotish yoki ijaraga berishga;

o‘z aktivlarini sotishga;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatishga;

sug‘urta tashkilotlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug‘urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga;

Bank o‘zi muassis bo‘lgan yuridik shaxslarga o‘z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berishga.

15. Bank quyidagilarga majburdir:

Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlarga rioya etish;

Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zaxiralash talablarini bajarish;

Markaziy bank tomonidan belgilangan ichki nazoratga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablarga rioya etishi;

kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha ehtimol tutilgan zararlarni qoplash uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda va miqdorlarda zaxiralar tashkil etish;

garovning (shu jumladan mol - mulk shaklidagi garovning), beriladigan kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning yetarliligini hisobga oladigan hamda beriladigan kreditlar ta’minlanishining ichki normativ tartibini belgilash;

o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor etish;

Bankda ichki audit xizmati mavjud bo‘lishini ta’minlash;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

qonun hujjatlariga muvofiq bank sirini yoki boshqa sirni tashkil etadigan ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minlash.

16. Bank qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquq hamda majburiyatlarga ham ega.

5-bob. Bank ustav kapitalining miqdori, uni ko‘paytirish va kamaytirish tartibi

17. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan sotib olingan Bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Ustav kapital kreditorlar manfaatlarini kafolatlaydigan Bank mol-mulkining eng kam miqdorini belgilaydi.

18. Bankning ustav kapitali 500 000 000 000 (Besh yuz milliard) so‘mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘m bo‘lgan 500 000 000 (Besh yuz million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat.

19. Bankning e’lon qilingan (qo‘shimcha) chiqarilishi mumkin bo‘lgan aksiyalarning eng ko‘p miqdori bir donasining nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘m bo‘lgan 1 000 000 000 (Bir milliard) dona oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

20. Bank ustav kapitalini ko‘paytirish va kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Bankning ustav kapitali qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

Qo‘shimcha aksiyalar faqat ushbu Ustavda belgilangan e’lon qilingan aksiyalarning soni doirasida joylashtiriladi.

Bank ustav kapitalini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda jalb qilingan investitsiyalar, Bankning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

22. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

Bank ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini sotib olish va bekor qilish yo‘li bilan kamaytirishi mumkin.

Bank ustav kapitalini kamaytirilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayishiga olib keladigan holatlarda Bank ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, ustav kapitalning kamayganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinishi shart.

6-bob. Bank aksiyalari, korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari. Ularni joylashtirish tartibi va shartlari.

23. Bankning aksiyalari egasining nomi yozilgan oddiy emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

Bank qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozli aksiyalar chiqarishi mumkin.

Bank aksiyalarining nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘mni tashkil etadi. Bank chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.

Bankning aksiyalari egalari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda huquq va majburiyatlarga ega.

Aksiyalarning haqi to‘liq to‘langunga qadar va uning yangi egasi aksiyadorlar reyestrida ro‘yxatga olingunga qadar aksiya ovoz berish huquqini bermaydi.

24. Bank aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar chiqarishga hamda ularni joylashtirishga haqli.

Bank aksiyalari ochiq va yopiq obuna o‘tkazish orqali joylashtiriladi.

Bankning aksiyalariga, korporativ obligatsiyalariga va boshqa qimmatli qog‘ozlariga haq to‘lash faqat pul mablag‘lari bilan amalga oshiriladi.

Bankning aksiyalarini, korporativ obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish usullari qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi.

Joylashtirilayotgan aksiyalarning, korporativ obligatsiyalarning va boshqa qimmatli qog‘ozlarning soni ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan miqdordan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Bank tomonidan qo‘shimcha aksiyalarni va boshqa emissiyaviy qimmatli

qog‘ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmasligi kerak.

7-bob. Bank Yagona aksiyadorining huquq va majburiyatlari

25. Bankning Yagona aksiyadori quyidagi huquqlarga ega:

Bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda o‘ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;

o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘lik tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;

Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o‘z vakiliga (vakillariga) berish;

qonunchilik hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa huquqlar.

26. Yagona aksiyador quyidagilarga majbur:

mazkur Ustavda ko‘rsatilgan tartibda, miqdorda va usullarda aksiyalarning narxini to‘lash;

mazkur Ustav va qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariyni va (yoki) investitsiya vositachisini o‘ziga oid ma’lumotlardagi o‘zgarishlar haqida o‘z vaqtida xabardor qilish;

bank va tijorat sirlarni tashkil etuvchi axborotni va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa maxfiy ma’lumotlarni oshkor etmaslik;

bank faoliyatiga oid va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida Bank tomonidan so‘ralgan ma’lumotlarni o‘z muddatida taqdim etish;

amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

27. Bank aksiyalariga egalik qilishga doir ruxsatnoma va cheklov O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari va Markaziy bankning meyoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

8-bob. Bank sof foydasini taqsimlash, dividendlar to‘lash va zararni qoplash

28. Bank foydasi hisobidan barcha soliq va majburiy ajratmalar to‘langandan so‘ng qoladigan qismi sof foyda hisoblanadi va ushbu sof foyda Yagona aksiyador qaroriga muvofiq belgilangan tartibda taqsimlanadi.

29. Bankning sof foydasi zaxira fondlar tashkil etishga, dividendlar to‘lashga hamda boshqa maqsadlarga yo‘naltiriladi.

30. Dividend Bank sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar Bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

31. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra, agar qonunchilik hujjatlari va mazkur Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Bankning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

32. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Yagona aksiyador tomonidan qabul qilinadi.

Dividendlarning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilingan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

33. Dividend Yagona aksiyador qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud Bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin.

Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Dividendlar to‘lash muddati ushbu haqda qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (Oltmish) kundan kechiktirilishi mumkin emas.

Dividendlar miqdori ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e’lon qiladi.

34. Dividendlarni to‘lash qonunchilik hujjatlarida taqiqlangan hollarda, Bank tomonidan dividendlarni to‘lash va to‘lash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishi taqiqlanadi.

35. Bank zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

9-bob. Bankda zaxira fondi va boshqa fondlar hamda Bankning sof aktivlari

36. Bankda Bank ustav kapitalining 15 (O‘n besh) foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Bankning zaxira fondi belgilangan miqdorga yetgunga qadar har yili sof foydaning 5 (Besh) foizidan kam bo‘lmagan miqdorda ajratmalar o‘tkazish orqali shakllantiriladi.

37. Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Bankning zaxira fondi Bankning zararlari o‘rnini qoplash, Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi.

Bankning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

38. Bank qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa fondlarni ham tashkil etishga haqli. Tashkil etiladigan fondlarning mablag‘lari qonunchilik hujjatlariga muvofiq Bankning Kuzatuv kengashi qaroriga asosan ishlatiladi.

39. Bank sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha Bank aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

10-bob. Bankning boshqaruv organlari

40. Quyidagilar Bankning boshqaruv organlari hisoblanadi:

Yagona aksiyador;

Bank Kuzatuv kengashi;

Bank Boshqaruvi.

41. Bankning boshqaruv organlari faoliyatining mazkur Ustav va Bankning ichki qoidalari bilan tartibga solinmagan masalalari qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

42. Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi ushbu Ustavda va Bankning ichki qoidalarida, Yagona aksiyador qarorlarida va qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida Bank faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Yagona aksiyador.

43. Yagona aksiyador Bankning yuqori boshqaruv organidir.

44. Bankning barcha aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo‘lganligi sababli Bankda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmagan holda Yagona aksiyadorning qarori qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va mazkur Ustav bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar Bank Yagona aksiyadori tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Bunda ushbu qonunda ko‘rsatilgan aksiyadorlar umumiy

yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish, uni chaqirish va o‘tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo‘llanilmaydi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

45. Yagona aksiyador har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘z vakolatidagi masalalar bo‘yicha yillik qaror qabul qiladi.

Yagona aksiyador yillik qaror qabul qilishdan tashqari qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan navbatdan tashqari qarorlar qabul qilishga haqli.

Yagona aksiyador o‘z tashabbusiga ko‘ra, Bank Kuzatuv kengashi tashabbusiga ko‘ra, Bank Boshqaruvi talabiga ko‘ra va qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslarning talabiga ko‘ra ular tomonidan qo‘yilgan masalalr bo‘yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

46. Yagona aksiyadorning vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Bank Kuzatuv kengashining hamda Islomiy moliya kengashining a’zolari son tarkibini belgilash, uning a’zolarini tayinlash (saylash) va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning Kuzatuv kengashi a’zolariga haq to‘lash;

e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;

Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

o‘z aksiyalarini olish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

Bankning yillik hisobotini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

Bank Kuzatuv kengashining o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 8-bobida (Yirik bitimlar tuzish) va 9-bobida (Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish) nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bank Kuzatuv kengashining vakolatidagi yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha Bank Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda ushbu yirik bitim

tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

sanoq komissiyasining miqdor va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq Yagona aksiyador vakolatiga kiruvchi Bankning ichki qoidalarini tasdiqlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

47. Yagona aksiyador vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Yagona aksiyador vakolati doirasiga kiritilgan quyidagi masalalar Bankning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berildi:

Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Bankning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, uning rahbarini uch yilga saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning Bank Boshqaruviga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

Bankning yillik biznes rejasini tasdiqlash.

48. Yagona aksiyador tomonidan qabul qilingan qarorlar amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda e’lon qilinadi.

49. Yagona aksiyadorning qarorlar qabul qilish tartibi hamda jarayoni amaldagi qonunchilik hujjatlari va Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlanadigan Bankning ichki qoidasi bilan tartibga solinadi.

Bank Kuzatuv kengashi.

50. Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv

vazifasini bajaradi hamda umuman Bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va mazkur Ustav bilan Yagona aksiyadorning vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

51. Bank Kuzatuv kengashi Bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Bank Boshqaruvi a’zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta’minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

Bank Kuzatuv kengashi a’zolari Bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog‘ida Bankning, uning omonatchilari va Yagona aksiyadorning qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlashi kerak.

52. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bank Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

Bank Ustaviga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarni Yagona aksiyador hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi Bankning ichki qoidasini tasdiqlash;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

Bank Boshqaruvining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bank Boshqaruvidan olish. Bank Kuzatuv kengashi va uning a’zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

Bankning filiallarini, bank xizmatlari ofisini va boshqa alohida bo‘linmalarini hamda vakolatxonalarini ochish hamda yopish;

Bankning shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish;

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish

to‘g‘risida”gi Qonunning 8-bobida (Yirik bitimlar tuzish) va 9-bobida (Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish) nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha Bank Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan takdirda yirik bitim tuzish masalasini Yagona aksiyadorga hal qilishi uchun olib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

Bank Kuzatuv kengashi qoshidagi qo‘mitalarni tuzish va ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Bankning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan depozit sertifikatlari chiqarish, ularni qaytarib sotib olish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bank Boshqaruvi a’zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning Boshqaruviga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

Bankning yillik biznes rejasini tasdiqlash;

Bank Boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini tuzish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish;

Bank Boshqaruv raisining vakolati muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;

bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo‘yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta’minlash;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to‘g‘risida Yagona aksiyadorga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta’minlash;

Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta’minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi Bankning ichki qoidalarini tasdiqlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

qonunchilik hujjatlariga hamda mazkur Ustavga muvofiq Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

53. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank Boshqaruviga o‘tkazilishi mumkin emas.

54. Bank Kuzatuv kengashining a’zolari Yagona aksiyador tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Bank Boshqaruvi a’zolari va uning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a’zolari Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Bank Kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

Bankning Kuzatuv kengashi a’zolari soni besh kishini tashkil qiladi va bulardan kamida bir nafari mustaqil a’zodan iborat bo‘ladi.

Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi bo‘lishi mumkin emas:

so‘nggi uch yil ichida Bankda va (yoki) Bankning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

Bankning aksiyadori;

Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo‘lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko‘p bo‘lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo‘lsa, o‘sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e’tirof etiladi;

so‘nggi uch yil ichida Bankka va (yoki) Bankning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko‘rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo‘lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a’zosining vazifalari bajarilishini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan kelishuvlar mustasno;

Bankning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan

shaxslarining a’zosi bo‘lgan shaxsning yoki so‘nggi uch yil ichida ularga a’zo bo‘lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o‘g‘illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo‘lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo‘lgan shaxs;

Bankning Ustavida yoki Yagona aksiyador qarori bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan shaxs.

Bank Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a’zolarning reyestrini yuritadi va uni o‘z rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a’zolarining reyestrini yuritish tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a’zosining ushbu bandning oltinchi xatboshisida belgilangan talablarga muvofiqligi o‘zgargan taqdirda, u Bankni va Kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart va boshqa nomzod mustaqil a’zo sifatida taklif etiladi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchiligi Bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno.

Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi Kuzatuv kengashining boshqa a’zolari bilan bir qatorda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Bank Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z mulohazalarining mustaqilligi bo‘yicha talablarga rioya etishi kerak.

Bank Kuzatuv kengashining a’zoligiga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishiladi.

55. Bank Kuzatuv kengashi ishini tashkil etish Kuzatuv kengashining raisi tomonidan amalga oshiriladi. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

Bank Kuzatuv kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashi a’zolaridan biri amalga oshiradi.

56. Bank Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, Kuzatuv kengashi a’zosining, Kuzatuv kengashi qoshida tashkil etilgan qo‘mitalar va ularning a’zolarining, Bank Boshqaruvining va uning a’zosining, tashqi auditorining, Markaziy bankining, ichki audit xizmati rahbarining, korporativ maslahatchining, Tavakkalchiliklarni boshqarish ximatini rahbarining talabiga ko‘ra chaqiriladi.

57. Bank Kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum Bank Kuzatuv kengashiga saylangan a’zolarning 75 (Yetmish besh) foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

58. Bank Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilik hujjatlarida va mazkur Ustavda o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Kuzatuv kengashining har bir a’zosi bitta ovozga ega bo‘ladi.

59. Bank Kuzatuv kengashining majlisida quyidagi qarorlar bir ovozdan qabul qilinishi lozim:

Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Bankning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarish;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 15 (O‘n besh) foizidan 50 (Ellik) foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish;

affillangan shaxs bilan bitim tuzish.

60. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) Bank Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

61. Bank Kuzatuv kengashining bir a’zosi o‘z ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a’zosiga berishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank Kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Bank Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

62. Bank Kuzatuv kengashi faoliyati va yig‘ilishini tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlanadigan Bankning ichki qoidasi bilan tartibga solinadi.

Bank Boshqaruvi.

63. Bank Boshqaruvi Bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda Bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

64. Bank Boshqaruvi tarkibi 7 (Yetti) a’zodan, shu jumladan Boshqaruv raisi va uning a’zolaridan iborat.

65. Bank Boshqaruvning a’zoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishiladi. Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko‘ra oldindan kelishib olishning imkoni bo‘lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so‘rovnoma yuboriladi.

66. Boshqaruv raisi va Bank Boshqaruvi a’zolari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi tomonidan o‘rnatilgan tartibda

tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Bank Boshqaruvi raisi va a’zolari bilan shartnoma uch yil muddatga tuziladi.

67. Bank Boshqaruvining vakolatlariga Bank joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Yagona aksiyadorning vakolatlariga va Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jumladan, Bank Boshqaruvining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Yagona aksiyador va Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish va/yoki ijrosini ta’minlash;

Bankning siyosatlari va strategiyasini joriy etilishini hamda biznes-reja ijrosini ta’minlash;

qonunchilik hujjatlariga asosan Bank Boshqaruvi vakolatiga kiruvchi Bankning ichki qoidalaini hamda Bankning tarkibiy tuzilmalari haqidagi nizomlarni tasdiqlash;

korporativ boshqaruvining zamonaviy va ilg‘or uslublarini joriy etish, korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini tatbiq etilishini tashkil qilish va Bankning korporativ boshqaruvga oid siyosatni ishlab chiqish;

Bankda qonunchilik hujjatlari va halqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritilishini va moliyaviy hisobot taqdim etilishini, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirish;

Bankning faoliyati yakunlarini, depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish, kreditlashni tashkil etish, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmati, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqish;

Bank xizmatlarining yangi turlarini ishlab chiqish va joriy etish;

hisob-kitob xizmatlari ko‘rsatish, kredit, pul va to‘lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiy shartlari va tartibini belgilash;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki qoidalarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirish;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta’minlashi;

Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

Bankning ish amaliyotiga eng ilg‘or bank texnologiyalari, Bank ishlarini kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etish, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta’minlash;

Bank aktivlarining diversifikatsiyalanishini amalga oshirish;

Bank tomonidan Markaziy bank belgilagan iqtisodiy normativlarga hamda majburiy zahiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta’minlash;

Bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo‘lishini, aktivlarni

tasniflash orqali ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar yaratilishini ta’minlash;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib hamda xalqaro standartlarga muvofiq bank buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish;

Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek, Yagona aksiyadorga va Bank Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, moliyaviy natijalar, Bankka nisbatan qo‘llanilgan choralar hamda sanksiyalar to‘g‘risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etish;

Bank Kuzatuv kengashida ko‘rib chiqish uchun Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatli strategiya asosida qisqa muddatli biznes-rejalarni va Bank Kuzatuv kengashi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar bo‘yicha takliflar kiritish;

Bankda qonunchilik hujjatlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

ishchi organlarni, shu jumladan Bank qo‘mitalar va komissiyalarini tuzish, ularning vakolatlarini belgilash va nizomlarni tasdiqlash;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizigacha bo‘lgan miqdordagi bitimlarini tuzish to‘g‘risida qarorlarni qabul qilish;

Bank Boshqaruvi vakolati doirasida bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va muomalada bo‘lish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish;

Bank Ustavida hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

68. Bank Boshqaruvi Yagona aksiyador va Bank Kuzatuv kengashiga hisobdor.

69. Bank Boshqaruvining majlisini o‘tkazish uchun kvorum Bank Boshqaruviga saylangan a’zolarning 50 (Ellik) foizidan ko‘p bo‘lishi lozim.

Bank Boshqaruvining majlisida qarorlar, agar qonunchilik hujjatlarida va mazkur Ustavda o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Boshqaruvining majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Boshqaruvining har bir a’zosi bitta ovozga ega bo‘ladi.

70. Bank Boshqaruvi raisi quyidagi vakolatlarga ega:

Bankning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlik qilish;

Bank nomidan Ustavga asosan ishonchnomasiz ish yuritish;

Bank nomidan bitim va shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzish;

Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda uning mol-mulki va pul mablag‘larini tasarruf qilish;

Bank nomidan harakat qilish uchun xodimlarga ishonchnomalar berish;

Boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining hamda tarkibiy tuzilmalari rahbarlarining lavozim majburiyatlarini tasdiqlash;

Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

Bank faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida Bankning tashkiliy tuzilmasi doirasida tarkibiy tuzilmalarni tashkil qilish va o’zgartirish;

boshqa tashkilotlar va organlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarda Bankning manfaatlarini ifodalash;

Bankning xodimlarini, vakolatxonalar va sho‘ba korxonalar rahbarlarini tayinlash, lavozim oylik maoshlarini belgilash hamda ularni lavozimdan ozod qilish;

shtat jadvallarini tasdiqlash;

xodimlarni rag‘batlantirish, ularga nisbatan intizomiy jazolarni qo‘llash, shuningdek intizomiy jazolarni olib tashlash;

o‘z vakolati doirasida Bank tizimida bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruq, farmoyish va ko‘rsatmalarni berish;

Boshqaruv raisi amaldagi qonunchilik, mazkur Ustav va Bankning boshqa ichki qoidalariga binoan boshqa vakolatlarga ega.

71. Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a’zolari bilan shartnomalarni Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

Boshqaruv raisi Bankning rahbarlari va xodimlarini buyruq bilan tayinlaydi va ular bilan Bank nomidan shartnomalarni tuzadi.

72. Bank Boshqaruvi va Bankning tarkibiy tuzilmalari rahbarlari Bank hisobotidagi axborotning ishonchliligi uchun javob beradi.

73. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Bankning manfaatlarini ko‘zlab ish tutadi hamda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a’zolarining Bank oldidagi javobgarligi solidar hisoblanadi.

Agar Bank Boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Bankka zarar yetkazilgan bo‘lsa va bunda Bank Boshqaruvi raisining yoki Boshqaruvi a’zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda Bankning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

74. Bank Boshqaruvi faoliyati va yig‘ilishini tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlanadigan Bankning ichki qoidasi bilan tartibga solinadi.

75. Bankdagi islomiy bank faoliyati islomiy moliya standartlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish maqsadida Bankda Islomiy moliya kengashi tashkil etiladi va u Bankning kollegial organi hisoblanadi.

Islomiy moliya kengashi vazifalariga quyidagilar kiradi:

Bank islomiy moliya operatsiyalarining islomiy moliya standartlariga muvofiqligini ta’minlash va muvofiqlik bilan bog‘liq masalalar va murojaatlar

bo‘yicha xulosalar taqdim etib borish;

islomiy moliya operatsiyalari bilan bog‘liq shartnomalar, ichki hujjatlar va hisobotlar loyihalarini ko‘rib chiqish hamda ma’qullash;

islomiy bank faoliyati, shu jumladan islomiy moliya operatsiyalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar va hujjatlar bo‘yicha Bank tomonidan amal qilinishi majburiy bo‘lgan va qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan qarorlarni qabul qilish;

islomiy bank faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini joriy etishda Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga o‘z xulosalari va ko‘rsatmalari orqali ko‘maklashish.

Islomiy moliya kengashi Bank Ustaviga va (yoki) ichki siyosatlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

Islomiy moliya kengashining vazifalari Yagona aksiyadorga yoki Bankning boshqa boshqaruv organiga berilishi mumkin emas.

Islomiy moliya kengashi vakolatlari quyidagilardan iborat:

Bankning islomiy moliyalashtirish sohasiga doir ichki qoidalari va boshqa hujjatlarni o‘z vakolati doirasida tasdiqlash;

Bankning islomiy moliyalashtirish bo‘yicha mas’ul tarkibiy tuzilma faoliyati yuzasidan takliflar va topshiriqlar berish;

Bankning islomiy moliyalashtirish bo‘yicha mas’ul tarkibiy tuzilma rahbarini tayinlash (yoki lavozimidan ozod qilish) masalasi bo‘yicha taklif kiritish;

Bankning islomiy moliyalashtirish bo‘yicha axborotlarni va hisobotlarni davriy taqdim etilishini talab qilish;

amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa vakolatlar.

Islomiy moliya kengashi a’zolari Markaziy bank bilan kelishilgan holda hamda Bank Kuzatuv kengashi tavsiyasi asosida Yagona aksiyador tomonidan saylanadi va a’zoligi tugatiladi.

Islomiy moliya kengashi a’zolari soni 3 (Uch) kishidan iborat.

Islomiy moliya kengashining a’zolari o‘z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta’minlash uchun islomshunoslik, islom huquqi (fiqh), usulul fiqh yoki fiqhul muamalat bo‘yicha zarur bo‘lgan tajribaga, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Bankning Yagona aksiyadori va muhim ahamiyatga ega xodimlarining Islomiy moliya kengashi a’zosi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Islomiy moliya kengashi Bankdagi islomiy bank faoliyatining islomiy moliya standartlariga muvofiqligini baholaydi va baholash natijalari bo‘yicha Yagona aksiyadorga bir yilda kamida bir marotaba hisobot taqdim etadi.

11-bob. Bankning hisobi va hisoboti

76. Bank buxgalteriya hisobini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob-kitob siyosatiga muvofiq tashkil etadi va yuritadi.

77. Bankdagi buxgalteriya hisobi:

boshqaruvga, moliyaga, soliqqa va nazoratga oid hisobotning hamda boshqa hisobotlarning ishonchliligini, ularda bankning haqiqiy moliyaviy holati va faoliyati natijalari aks ettirilishini;

Bank aktivlarini va yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish xavfsizligini;

Yagona aksiyador va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Bankning moliyaviy ahvolini va uning mansabdor shaxslarining ishini nazorat qilish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

78. Bankda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorga, kreditorlarga taqdim etiladigan bank faoliyati to‘g‘risidagi ma'lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik bank boshqaruvining zimmasida bo‘ladi.

79. Bankning moliyaviy hisobotida ko‘rsatilgan va Yagona aksiyadorga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari bank yoki uning aksiyadori bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

80. Bank moliyaviy hisobotlarni, banklar guruhining asosiy banki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni ularda ko‘rsatilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligini auditorlik tashkiloti tasdiqlaganidan keyin Markaziy bank tomonidan belgilanadigan shaklda e'lon qiladi.

81. Bank o‘z mablag‘lariga, kapitalga doir talablarning bajarilishiga, likvidlikka, tavakkalchiliklarning qiymatiga va boshqa muhim ko‘rsatkichlarga (normativlarga) doir axborotni oshkor etishi kerak.

82. Bank o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakllarda, tartibda va muddatlarda tuzadi hamda Markaziy bankka taqdim etadi.

Bank Markaziy bankning talabiga ko‘ra konsolidatsiyalashgan, davriy, shuningdek bir martalik hisobotlarni taqdim etadi.

Bank Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlarning va boshqa ma'lumotlarning yaxlitligi hamda ishonchliligi uchun javobgardir.

83. Bankning yillik hisoboti Yagona aksiyador qarori qabul qilinganidan sanadan o‘n kundan kechiktirmay Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

84. Bank Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazilganidan keyin, Yagona aksiyador qarori sanasidan kamida ikki hafta oldin e'lon qilishi shart.

85. Bank oshkor etilishi majburiy bo‘lgan axborotni qonunchilik hujjatlarida

belgilangan hajmda, muddatlarda va tartibda amalga oshiradi, shuningdek o‘zi tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog‘ozlarga tegishli bo‘lgan axborotni e’lon qiladi.

86. Bankning moliyaviy yili 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

87. Bank bank faoliyati davomida shakllanadigan hujjatlarning lozim darajada hisobga olinishi, saqlanishi va undan foydalanilishini ta’minlaydi.

Bank qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddat mobaynida hujjatlarning saqlanishini ta’minlaydi.

12-bob. Bank faoliyatini nazorat qilish

88. Bankning moliya - xo‘jalik faoliyatini hamda joriy faoliyatini nazorat qilish uchun Bankda ichki audit xizmati tashkil etiladi.

89. Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish Yagona aksiyadorning va/yoki Bank Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

90. Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko‘ra Bankning ichki audit xizmati xulosa (dalolatnoma, ma’lumotnoma) tuzadi va xulosa Bank Kuzatuv kengashiga va/yoki Yagona aksiyadorga taqdim etiladi.

91. Bankning ichki audit xizmati o‘z faoliyatini qonunchilikda belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

92. Bank qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda auditorlik tashkilotini jalb qiladi.

Auditorlik tashkiloti Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Bank moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

93. Auditorlik tashkiloti Bankning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto‘g‘ri xulosani o‘z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank oldida javobgar bo‘ladi.

94. Bankda Bank Kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan va korporativ qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Bank korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etilishi mumkin.

95. Bank korporativ maslahatchisining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Bankning ichki qoidasi asosida amalga oshiriladi.

13-bob. Bankni qayta tashkil etish va tugatish

96. Bankni qayta tashkil etish va tugatish Yagona aksiyador qaroriga muvofiq Markaziy bankning ruxsati bilan qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bankni qayta tashkil etish va tugatish Markaziy bankning talabiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

14-bob. Bank ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

97. Bank Ustavi, shuningdek unga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinadi hamda Markaziy bankda ro‘yxatga olinadi.

15-bob. Yakunlovchi qoidalar

98. Ushbu Ustavda nazarda tutilmagan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

99. Mazkur Ustavga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yoki Ustavning yangi tahriri davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

100. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

101. Ushbu Ustavning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lsa, ushbu bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

102. Mazkur yangi tahrirdagi Ustav Markaziy bankda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi munosabati bilan Markaziy bank tomonidan 2025-yil 29-avgust kuni 89-son bilan ro‘yxatga olingan Bank Ustavi va Markaziy bank tomonidan 2026-yil 7-apreldagi 89/1-son bilan ro‘yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar va o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi a’zosi /imzo/ N.R.Yusupov